2025-2026-o'quv yilidagi 1-bosqichda 112 ta tumandan 4 987 ta maktab ishtirok etdi, qolgan maktablarning esa dekabr oyida bo'ladigan 2-mavsumda ishtirok etishi rejalashtirilgan. Loyiha kiritish bosqichida o'quvchilar "Ochiq budget" portalidagi namunalar orasidan o'zlariga yoqqan loyihani tanlashi yoki mustaqil ravishda yangi loyiha shakllantirib, uni ilgari surishi mumkin.

Hozirgi kunda "Mening maktabim" loyihasi doirasida kiritilgan jami 112 272 ta tashabbusdan 111 270 tasi qabul qilingan, 1 002 ta loyiha esa rad etilgan. Loyihani moliyalashtirish uchun jami 300,7 mlrd so'm mablag' yo'naltirilgan bo'lib, ushbu mablag' g'olib loyihalarni amalga oshirishga sarflanadi. Loyihaning 87 070 ta sinfni (5-11-sinflar) va 2 138 277 nafar o'quvchini qamrab olganining miqyosi sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, maktablar sonining ko'payganini inobatga olgan holda, har bir maktabga o'rtacha 22-23 ta loyiha to'g'ri kelgan (pilot bosqichda – 34 ta). Bu esa loyiha kengaygan sharoitda o'quvchilar ishtirokini monitoring qilish va chuqur tahlil etish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi raqamlar "Mening maktabim" tashabbusining bir vaqtning o'zida salohiyati va cheklovlarini namoyon etadi. Xususan, pilot bosqichning o'zida 159 ming o'quvchidan 47 ming nafari ovoz berishda



qatnashgani, 2025-2026-o'quv yilida esa yuz minglab o'quvchilar jarayonga jalb etilgani loyihaning fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishdagi imkoniyatlarini ko'rsatadi. Shu bilan birga, g'olib loyihalarning tarkibi asosan moddiy jihozlash (interfaol doskalar, kompyuter texnikasi, mebel) va xavfsizlikka (videokuzatuv kameralariga) yo'naltirilgani kuzatiladi. Ijtimoiy, madaniy, ekologik yoki inklyuziv tashabbuslarning nisbatan past ulushi esa "Mening maktabim" loyihasining faqat jihozlash dasturi sifatida qabul qilinib qolishi xavfini keltirib chiqaradi.

Shuningdek, hududlar kesimida ovozlari soni va ishtirok darajasidagi katta farqlar internet infratuzilmasi, texnik baza, axborot-targ'ibot ishlari hamda mahalliy rahbariyatning munosabati SPBning real qamrovi va tengligiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi. Shu sababli, kelgusi mavsumlarda mablag'larni faqat teng miqdorda taqsimlash emas, balki maktab ehtiyojlarini hisobga olgan differensial formula joriy etish maqsadga muvofiqdir. Masalan, o'quvchilar soni, sinflar soni, ijtimoiy-iqtisodiy holat yoki inklyuzivlik indeksiga qarab qo'shimcha koeffitsiyentlarni belgilash mumkin. Bunday yondashuv teng imkoniyatlar bilan birga resurslardan samarali foydalanish tamoyilini ham ta'minlaydi.

Xorijiy mamlakatlarda SPBning bir nechta institusional modellari shakllangan. Ular orasida milliy markazlashgan dasturlar (Portugaliya, Rossiya va Fransiya mintaqalari), mahalliy hokimiyat yoki maktab okruglari tashabbusiga tayanuvchi munisipal modellar (Chexiya, AQSH), shuningdek, aholining tashabbuskorligi va ta'lim sohasini qo'llab-quvvatlovchi nodavlat tashkilotlar boshchiligidagi formatlar (Litva) mavjud. Eng samarali modellarda SPB alohida ma'rifiy brendga aylangan bo'lib, o'quv dasturlari, ommaviy kommunikatsiya, raqamli platformalar, fuqarolik va moliyaviy savodxonlikni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar bilan uyg'unlashgan.

Quyida Portugaliya, Fransiya, Chexiya, Litva, Rossiya va AQSH (Nyu-York va Finiks shaharlari) misolida asosiy institusional yondashuvlar, o'quvchilar va maktab ma'muriyatini jalb etish usullari, raqamli yechimlar va ta'limga integratsiya shakllari qisqacha tahlil qilinadi hamda ularning "Mening maktabim" tashabbusini kengaytirish uchun qanchalik mos ekani yuzasidan xulosalar beriladi.

Portugaliyada "Orçamento Participativo das Escolas" (OPE) dasturi milliy tashabbus sifatida shakllanib, mamlakat bo'yicha yoshlarning demokratik ishtiroki brendiga aylangan. 2016-2017-o'quv yilidan boshlab davlat maktablarida amalga oshirilayotgan mazkur dastur markaziy budjetdan har bir o'quvchiga 1 yevro miqdorida (kam sonli maktablar uchun minimal chegara belgilangan) mablag' ajratish orqali moliyalashtiriladi. Dastur doirasida keng ko'lamli ijtimoiy loyihalar amalga oshirilib, o'quvchilarga maktab muhitini yaxshilashga qaratilgan tashabbuslarni taklif qilish va ularni tanlash imkoniyati yaratilgan.

Xususan, so'nggi yillarda inklyuzivlik, zaif o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va maktabning umumiy farovonlik madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan maxsus tematik yo'nalish – OPE-Inclui faoliyat yuritadi. OPE-Inclui milliy Ta'limni tiklash rejasi (PRA) doirasida "Ta'limiy resurslar"ga integratsiya qilingan va rasmiy ta'limiy instrument sifatida tan olingan. OPEning rasmiy veb-saytida qoidalar, savol-javoblar, ariza shakllari, shuningdek, plakatlar, logotiplar, videolar va qo'llanmalardan iborat markazlashgan resurslar arxivi joylashtirilgani maktablar uchun tashkiliy yukni kamaytiradi hamda kommunikatsiya jarayonining standartlashuvini ta'minlaydi (OPE Program[10]).

Portugaliya tajribasining ustun jihati shundaki, milliy darajada yagona brend va qoidalar orqali tenglik va shaffoflik ta'minlanadi, natijada o'quvchilar fikri butun mamlakat bo'ylab inobatga olinadi. Biroq, har bir o'quvchiga bir yevro mablag' ajratish modeli dastur barqarorligini markaziy budjet imkoniyatlariga kuchli bog'laydi. O'zbekiston uchun bu, bir tomondan, "Mening maktabim"ni milliy brend sifatida rivojlantirish va yagona resurslar arxivini yaratish zarurligini, ikkinchi tomondan esa maktab ehtiyojlarini hisobga olgan differensial mablag' taqsimoti ustida o'ylash lozimligini ko'rsatadi.

Portugaliya kabi markazlashgan SPB dasturlaridan farqli o'laroq, Fransiya SPB asosan mintaqaviy darajada tashkil etiladi. Masalan, Poitou-Charentes, Île-de-France, Lion, Parij va Grenobl kabi hududlarda SPBning o'ziga xos uslublari va tartiblari ishlab chiqilgan. Bu modelni hududiy sharoitlarga moslashuvchan va mahalliy muammolarga nisbatan sezgir qiladi. Mamlakatdagi eng dastlabki tashabbuslardan biri bo'lgan O'rta maktablarda ishtirokli budjetlashtirish (High School Participatory Budget) amaliyoti 2005-2009-yillarda Poitou-Charentes mintaqasida amalga oshirilgan. Unda o'rta maktablar budjetining 10 foizi maktab jamoalari (o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar va texnik xodimlar) tomonidan taklif qilingan loyihalarga yo'naltirilgan. Besh yil davomida o'quvchilar tashabbuslari uchun jami 10 mln yevro ajratilib, 93 ta liseyda 1 400 ta loyiha moliyalashtirilgan. Loyihalar asosan "maktabda yashash va ishlash sharoitlarini yaxshilash"ga qaratilgan bo'lib, mediateka tashkil etish, yashil hududlar barpo etish, inklyuziv infratuzilmalar, madaniy va sport loyihalari ustuvor yo'nalishlar bo'lgan (Poitou-Charentes [11]).

Fransiyaning ko'plab hududlarida liseylar uchun alohida SPB dasturlari shakllangan. Jumladan, Île-de-France tajribasida har bir liseyga alohida avtonom ta'lim budjeti (10 000 yevrogacha) ajratilib, ushbu mablag'larning bir qismi o'quvchilar tashabbuslari uchun yo'naltiriladi (Budget d'autonomie éducative francilien, BAEF [12]). Parijda esa shahar partisipator budjetining bir qismi sifatida "Budget Participatif des Lycées" dasturi

amalga oshiriladi. Mazkur dastur “Jeunesse” (yoshlar) toifasi orqali lisey va kollej o'quvchilariga mo'ljallangan bo'lib, ularga shahar investitsiyalarining bir qismini taqsimlashda ishtirok etish imkoniyati beriladi. 2016-yildan buyon shahar maktablarining 83 foizi ushbu dasturda qatnashib kelmoqda. Unda o'quvchilar oldindan tayyorlangan katalogdan o'z ta'lim muassasalarida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan loyihalarni tanlaydilar. Ushbu modelda SPB fuqarolik tarbiyasi, ijtimoiy adolat va demokratik madaniyatni shakllantirishning amaliy mexanizmi sifatida qoraladi (Le Budget Participatif des Lycées [13]).

Viloyat va shahar darajasidagi tashabbusli budjetlashtirish platformalarini “Mening maktabim” loyihasi bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ayrim hududlarda maktab tashabbuslarini yanada kengroq shahar yoki tuman dasturlari bilan bog'lash mumkin. Shu bilan birga, markazlashgan normativ asosni saqlagan holda hududlarga mavzularni yoki ovoz berish formatini tanlash bo'yicha ma'lum darajada erkinlik berish lozim. Bu esa bir vaqtning o'zida standartlashuv, taqqoslanuvchanlik va mahalliy moslashuvchanlikni ta'minlash imkonini beradi.

Chexiya tajribasida maktablarda SPB ilk bor Říčany shahrida joriy etilib, keyinchalik Praga, Brno va Kutná Hora kabi yirik shaharlarga kengaygan. Ayniqsa, Brno shahri yetakchi tajribaga ega bo'lib, 2020-yildan beri “Participativního rozpočtu do škol” maxsus raqamli platformasi orqali butun jarayonni (loyiha topshirish, muhokama, ovoz berish, hisobot) boshqarib kelmoqda. Har bir maktabda Koordinator tayinlanadi va ular uchun meriya tomonidan malaka oshirish kurslari tashkil etiladi. Ushbu mexanizm jarayonni tizimli boshqarish bilan birga, maktablarni mahalliy demokratik hayotga yanada chuqurroq bog'laydi.

Brno modeli kuchli institusional va raqamli qo'llab-quvvatlashga tayanadi. Ammo bu imkoniyatlar avvalo yirik shaharlarga xos bo'lib, kichik shahar yoki qishloq maktablarida raqamli infratuzilma va boshqaruv salohiyatining yetishmasligi muammoli bo'lishi mumkin. O'zbekiston uchun har bir maktabda rasmiy koordinator instituti, ular uchun o'quv-mashg'ulot tizimi, shuningdek SPBning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi yagona raqamli platformani joriy etish maqsadga muvofiq.

Litva tajribasi SPBning nodavlat tashkilotlar tashabbusida shakllanayotgan modelini namoyon etadi. Transparency International Lithuania 2019-yildan boshlab o'quvchilarni moliyaviy savodxonlik va mas'uliyatli qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish orqali SPBni ommalashtirishga xizmat qilmoqda. “Fuqarolik laboratoriyasi” formatidagi mashg'ulotlar o'quvchilarning korrupsiyaga qarshi immuniteti, shaffoflik va jamoat mablag'laridan foydalanishdagi mas'uliyatini mustahkamlaydi. Seminarlar, debatlar, o'yinlar, shuningdek o'quvchilarning videokontent va bloglar yaratishi jarayonning asosiy vositalariga aylangan.

O'zbekiston uchun mazkur yondashuv ayniqsa ahamiyatli, chunki “Mening maktabim” dasturining ko'lami kengayib borar ekan, SPBni samarali joriy etishda nodavlat hamkorlarni jalb qilish, ta'limiy komponentni kuchaytirish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash muhim hisoblanadi.

Rossiya tajribasi – “Школьный инициативный бюджет” (ШИБ) dasturi – SPBni mamlakat sharoitiga moslashtirilgan holda joriy etishning institusional yechimini taklif etadi. Saxalin, Sankt-Peterburg, Bashqiriya, Yamalo-Nenes va boshqa ko'plab hududlarda maktab SPBlari qo'llanilgan. NIFI huzuridagi Tashabbusli budjetlashtirish markazi tomonidan ShKIB konsepsiyasi va maktablar uchun namunaviy yo'riqnoma ishlab chiqilgan. Moliyalashtirish hududiy va munitsipal budjetlar hamda maktab mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi; shuningdek aholi, biznes yoki NNTlar ishtiroki asosida hamkorlikda moliyalashtirish imkoniyati ko'zda tutilgan.

Festival, “loyiha yarmarkalari”, onlayn tanlovlar orqali eng yaxshi amaliyotlar ommalashtiriladi va SPB maktab boshqaruvi madaniyatini o'zgartiruvchi tarbiyaviy texnologiyaga aylanmoqda. Biroq amaliyot hududlar bo'yicha noteng rivojlanmoqda – ayrim hududlarda dastur kuchli, boshqalarda esa faqat pilot tarzida.

O'zbekiston uchun bu tajriba metodik markaz, namunaviy yo'riqnomalar, shuningdek shaffoflik va hisobdorlikni o'quvchilar tashabbusi va ijodkorligi bilan muvozanatlash zarurligini ko'rsatadi.

AQSH tajribasi SPBni fuqarolik ta'limi bilan integratsiyalashgan shaklda amalga oshirishga asoslanadi. 2013-yilda Phoenix Union maktab okrugida boshlangan dasturlar bugungi kunda Arizona shtati bo'ylab 70 dan ortiq maktabda qo'llanilmoqda. Nyu-Yorkda esa “Participatory Budgeting NYC” doirasida 400 dan ortiq maktablarga 2 ming dollar miqdorida mablag' ajratilib, o'quvchilar kichik loyihalar orqali fuqarolik kompetensiyalarini o'rganadi. Ko'pincha maktablar dastlab kichik sinf yoki pilot loyihalardan boshlab, keyinchalik butun maktab miqyosiga o'tadi.

AQSH modeli o'quvchilarni budjet rejalashtirish, jamoaviy qaror qabul qilish, kelishuv topish va ovoz berish kabi ko'nikmalar bilan ta'minlasa-da, milliy darajada yagona tizimga aylangan emas. Mablag' manbasi yoki tashabbuskor o'zgarganida, dastur ayrim maktablarda to'xtab qolishi mumkin.

O'zbekiston uchun bu model “Mening maktabim”ni bosqichma-bosqich takomillashtirish, har bir bosqichdan keyin chuqur tahlil va tuzatishlar kiritib borish, moliyaviy va huquqiy barqarorlikni davlat dasturlari va jamg'armalar orqali ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.



1-jadval. O'rganilgan mamlakatlarning o'ziga hos jihatlari taqqoslama jadvali

Element	Portugaliya	AQSH	Chexiya	Litva	Rossiya	Fransiya	O'zbekiston
Amalga oshirish darajasi	Milliy darajada (barcha davlat maktablari)	Mahalliy	Munisipal (maktablarning ixtiyoriga ko'ra)	Mahalliy	Mintaqaviy	Mintaqaviy	Milliy darajada
Moliyala shtirish manbalar i	Davlat byudjeti	Tuman byudjeti donorlar	Shahar byudjeti	Munisipal byudjet xalqaro donorlar	Regional, munisipal byudjet va ta'lim tashkilotlari ning byudjet mablag'lari, shuningdek, aholi, tadbirkorlar tomonidan birgalikda moliyalashtirish	Tuman byudjeti	Tuman (shahar) byudjeti, (2025-yil uchun xarajatlar smetasida bazaviy hisoblash miqdorining 150 barobarida mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan)
Jarayon ishtirokchilari	O'quvchilar (9-11-sinlar), maktab ma'muriyati, o'qituvchilar	O'quvchilar, maktab ma'muriyati, fasilitatorlar, mahalliy notijorat tashkilotlar	O'quvchilar, maktab koordinatorlari	O'quvchilar, maktab ma'muriyati, ustoz-murabbiylar	O'quvchilar, pedagog-xodimlar	O'quvchilar, maktab ma'muriyati, o'qituvchilar, Tuman kengashi	5-11-sinf o'quvchilari, maktab ma'muriyati
Amalga oshirish bosqichlari	Maktablarda tashabbuslar taqdimoti → Takliflarni ishlab chiqish va taqdim etish → Takliflar muhokamasi → Ovoz berish → Natijalarni nashr etish → Maktablarda g'olib loyihalarni amalga oshirishini rejalashtirishni → Amalga oshirish	Jarayonni loyihalash → G'oyalar yaratish → Takliflarni ishlab chiqish → Ovoz berish → G'olib loyihalarni moliyalashtirish	G'oyalar yaratish → tashviqot ishlari → ovoz berish	G'oyalar yaratish seminarlari → Loyiha bo'yicha ariza shakllarini topshirish → Ovoz berish → Amalga oshirish	O'quvchilarni MTBga jalb qilish → Maktab o'quvchilari tomonidan loyihalarni kiritish → Loyihalarni tanlash → Loyihalarni amalga oshirish → Loyihalarni monitoring qilish va baholash	G'oyalar muhokamasi → loyihalarni saralab olish → ovoz berish → loyihalarni moliyalashtirish bosqichi	Sinf rahbarlarini loyihaga tayyorlash → loyihalarni shakllantirish → loyihalarni saralab olish → ovoz berish → amalga oshirish → foydalanishga qabul qilish
Ovoz berish vositalari	Qog'oz byulletenlari, yashirin ovoz berish	Turli formatlar: qog'oz / elektron shakllarda	Platforma orqali elektron ovoz berish (Řičany, Brno, Praha)	Ovoz berish tartibining qoidalari va shaklini maktablarning o'zi belgilaydi	Offlayn ovoz berish	Onlayn, offlayn ovoz berish	Onlayn ovoz berish (openbudget.uz),
O'quv jarayoniga integratsiya	Loyihalar bo'yicha muhokamalar o'quv jarayoni davomida (darslar, sinf soatlari yoki tanlovlar paytida) amalga oshiriladi va maktab o'quv dasturidan chetga chiqmaydi (4 modda).	O'quv jarayoniga integratsiya qilinmagan	dars soatlari, guruh muhokamalari orqali	loyiha darslari, qo'shimcha darslar orqali	O'quv jarayoniga integratsiya qilinmagan	O'quv jarayoniga integratsiya qilinmagan	Mavjud emas
Raqamli platformalardan foydalani sh	https://opescolas.pt/faq-perguntas-e-respostas/#1513003145915-4fb16846-0664	https://www.participatorybudgeting.org/pb-in-schools/	Shaharlar uchun MPB platformalari, Hokimiyat saytlari (Brno https://skoly.damenavas.cz/)	Transparency International Lithuania https://transparency.lt/en/topic/participatory-budgeting/	Hokimiyat saytlarida	Shaharlar uchun MPB platformalari, Hokimiyat saytlari	openbudget.uz platformasi https://openbudget.uz/school/project-introduction

Qiyosiy tahlil natijalari o'rganilgan mamlakatlarda maktab ishtirokli budjetlashtirishining bir qator umumiy va farqli jihatlari ko'rsatadi.

Birinchi, tashkiliy darajaga ko'ra modellar sezilarli farqlanadi. Portugaliya va qisman Fransiya SPB milliy yoki mintaqaviy miqyosda to'liq institusionallashtirilgan bo'lib, yagona qoidalar, ustuvor yo'nalishlar va barqaror moliyalashtirish mexanizmlari mavjud. Chexiya va AQSHda esa jarayon asosan mahalliy hokimiyat organlari, shahar meriyalari yoki maktab okruglari tashabbuslari bilan boshqariladi. Litvada nodavlat notijorat tashkilotlari SPBning asosiy tashabbuskori va fasilitatori sifatida faol ishtirok etadi.

O'zbekistonda "Mening maktabim" tashabbusi, amalda, markazlashgan raqamli portal va milliy darajadagi normativ-huquqiy asosga tayangan holda tizimlashtirilmoqda. Bu yondashuv loyihani mamlakat bo'ylab keng tatbiq etish, qoidalar birxilligini ta'minlash va jarayonni barqaror mexanizm sifatida shakllantirish nuqtai nazaridan muhim ustunlik yaratadi.

Ikkinchidan, moliyalashtirish manbalari va hajmi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Ko'pchilik mamlakatlarda SPB uchun alohida budget yo'nalishlari shakllantiriladi, ayrim holatlarda homiyar, grantlar yoki mahalliy biznes subyektlari ham jalb qilinadi. Ba'zi davlatlarda maktabning o'z daromadlari, xususi sektor bilan hamkorlik yoki jamiyattan yig'iladigan kichik badallar qo'shimcha manba sifatida ishlatiladi.

O'zbekistonda esa "Mening maktabim" dasturi davlat budgeti va maxsus jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi hamda har bir maktab uchun aniq limit (60 mln so'm atrofida) belgilangan. Bunday mexanizm mablag'larning kafolatlanganligi, rejalar oldindan prognoz qilinishi va maktablar o'rtasida tenglikni ta'minlashi bilan ajralib turadi.

Uchinchidan, SPBning o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi samaradorlikning muhim omili hisoblanadi. Portugaliya, Litva va bir qator AQSH maktablarida SPB bevosita fuqarolik ta'limi, loyihaviy faoliyat, ijtimoiy fanlar va sinf soatlari bilan uzviy bog'langan. Bu yondashuv o'quvchilarning moliyaviy savodxonligi, jamoaviy qaror qabul qilish, shaffoflik va mas'uliyat kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

O'zbekistonda amaldagi normativ hujjatlar sinf rahbarlariga "Mening maktabim"ning mazmun-mohiyati va ishtirok qoidalarini o'quvchilarga tushuntirish, hamda ularni portaldagi loyiha kiritishda qo'llab-quvvatlash vazifalarini belgilagan. Biroq tajriba shuni ko'rsatadiki, integratsiya asosan axborot berish va texnik yordam bilan cheklanmoqda, SPBni fuqarolik ta'limi, iqtisodiy bilim asoslari, texnologiya va boshqa fanlar bilan chuqur bog'lash imkoniyatlari hali to'liq ishga solinmagan.

To'rtinchidan, raqamli platformalar SPBning shaffofligi, ishtiroki va monitoringida markaziy o'rin tutadi. Yevropa mamlakatlarida turli maxsus platformalar (masalan, Brno shahrining SPB uchun alohida maktab platformasi, Fransiya va Portugaliyadagi milliy portallar) g'oyalarni taqdim etish, muhokama, ovoz berish va jamoatchilik monitoringini to'liq raqamlashtirgan.

O'zbekistonda Openbudget.uz portalining mavjudligi SPB jarayonini markazlashgan, ochiq va kuzatuvchan mexanizm sifatida tashkil etishga xizmat qilmoqda. Kelgusida mazkur platforma orqali maktablar o'rtasida tajriba almashuvini kuchaytirish, loyiha jarayonlarini vizuallashtirish hamda jamoatchilik nazoratini yanada chuqurlashtirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, maktab ishtirokidagi tashabbusli budgetlashtirish (SPB) nafaqat infratuzilmani yaxshilash, balki o'quvchilarda fuqarolik faolligi, mas'uliyat, budget jarayonlarini tushunish kabi ko'nikmalarni shakllantirishda ham muhim ta'limiy ahamiyatga ega. Bu O'zbekiston uchun ayniqsa dolzarb, chunki "O'zbekiston-2030" Strategiyasi inson kapitalini rivojlantirish, o'quvchilarda tashabbuskorlik va mas'uliyatni kuchaytirishni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilaydi.

"Mening maktabim" loyihasi sinov bosqichidayoq maktab o'quvchilarini budget mablag'larining sarflanishi yuzasidan qaror qabul qilish jarayoniga jalb etishning samarali vositasiga aylandi. 2025-2026-o'quv yilidan boshlab loyiha mamlakat miqyosida kengaytirilishi uni barcha umumta'lim maktablarida qo'llaniladigan yirik ishtirokchi mexanizmga aylantiradi. Biroq ushbu tashabbusning uzoq muddatli barqarorligi va ta'limiy samaradorligi uning metodologik, pedagogik va institusional asoslarini mustahkamlashni talab qiladi.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. SPBni o'quv dasturlariga tizimli integratsiya qilish:
 - Iqtisod, matematika va informatika fanlarining 5-11-sinflar dasturlariga ehtiyojlarni aniqlash, ustuvor yo'nalishlarni belgilash, "xarajat-foyda" tahlili kabi modullarni kiritish.
 - "Mening maktabim" tashabbusini real amaliy keys sifatida qo'llash orqali o'quvchilarning iqtisodiy fikrlashi, analitik ko'nikmalari va loyihaviy yondashuvlarini rivojlantirish.
2. Maktab fasilitatorlari institutini yaratish:
 - O'quvchilarga loyiha ishlab chiqish, muhokama qilish, guruhda ishlash, nizolarni boshqarish bo'yicha amaliy ko'nikmalar beradigan pedagog-fasilitatorlar uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini joriy etish.
 - Maktab koordinatorlari asosida qisqa treninglar, amaliy seminarlar va metodik materiallar yaratish.
3. Moliyaviy limitlarni differentsiatsiya qilish:
 - Har bir maktab uchun bir xil (150 BHM) limitdan foydalanish tenglikni ta'minlasa-da, o'quvchilar soni, maktab infratuzilmasi holati va ehtiyojlar farqliligini hisobga olmaydi.
 - Shu bois, "bazaviy limit + kontingentga qarab qo'shimcha limit" tamoyili asosida resurslarni adolatli taqsimlash mexanizmini ishlab chiqish tavsiya etiladi.



4. Monitoring va ochiqlik mexanizmlarini kuchaytirish:
 - G'olib loyihalar ijrosi bo'yicha foto/video hisobotlar, shartnomalar va asosiy hujjatlarni Openbudget.uz portaliga joylashtirishni majburiy tartibga kiritish.
 - Loyihalar uchun qamrov, ishtirok darajasi, mavzu yo'nalishlari, ta'sir doirasi kabi indikatorlar tizimini joriy etish.
 - Bu jamoatchilik nazorati, manfaatdor tomonlar ishonchi va shaffoflikni oshiradi.
5. Xususiy sektor va NNTlar bilan sheriklikni kengaytirish:
 - Korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) dasturlari, homiylik, grantlar orqali maktab loyihalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish.
 - Ayniqsa ekologik, "yashil maktab", inklyuziv ta'lim va kreativ yo'nalishlardagi tashabbuslarni qo'shma moliyalashtirish modeli joriy etilishi maqsadga muvofiq.
 - Bu loyiha barqarorligini faqat davlat budjeti emas, balki keng ijtimoiy hamkorlik orqali ta'minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni. (2024). <https://lex.uz/docs/6811936>
2. Cabannes, Y. (2004). Participatory budgeting: A significant contribution to participatory democracy. *Environment and Urbanization*, 16(1), 27-46. <https://www.iied.org/sites/default/files/pdfs/migrate/G00471.pdf>
3. Sintomer, Y., Herzberg, C., & Röcke, A. (2008). Participatory budgeting in Europe: Potentials and challenges. *International Journal of Urban and Regional Research*, 32(1), 164-168. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1111/j.1468-2427.2008.00777.x>
4. Gibbs, N. P., Bartlett, T., & Schugurensky, D. (2021). Does school participatory budgeting increase students' political efficacy? *Curriculum & Teaching*, 36(1), 5-27. <https://www.researchgate.net/publication/352999162>
5. Bartlett, T., Rock, M., Tate, K., Thompson, K., & Schugurensky, D. (2021). *School participatory budgeting: 40 frequently asked questions*. Participatory Governance Initiative, Arizona State University. <https://spa.asu.edu/sites/g/files/litvpz801/files/2024-03/40-FAQs-School-Participatory-Budgeting.pdf>
6. Shybalkina, I., & Nabatchi, T. (2024). School participatory budgeting: An emerging governance tool and its managerial considerations. *Administration & Society*, 56(4), 419-445.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 5-dekabrda KQ-10-V-son qarori. (2024). <https://www.lex.uz/uz/docs/-7260833>
8. Openbudget.uz portal. (2024). *O'zbekistonda tashabbusli budjet jarayonlari bo'yicha rasmiy ma'lumotlar*. <https://openbudget.uz/home>
9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). *Tashabbusli budjet jarayonlari: 2024 yilda erishilgan natijalar yuzasidan axborotnoma*. https://api.mf.uz/media/document_files/1_Annual_2024_PB.pdf
10. OPE Escolas Portugal. (2024). *Participatory budgeting in schools*. <https://opescolas.pt/faq-perguntas-e-respostas/>
11. OECD. (n.d.). *Participatory democracy in Region Poitou-Charentes*. <https://web.archive.oecd.org/2012-06-15/125828-41095800.pdf>
12. Région Île-de-France. (n.d.). *Budget d'autonomie éducative francilien (BAEF)*. <https://www.iledefrance.fr/aides-et-appels-a-projets/budget-dautonomie-educative-francilien-baef>
13. ODP. (n.d.). *Schools participatory budgeting in Paris*. <https://oidp.net/en/practice.php?id=1222>
14. ODP. (n.d.). *Participatory budget for schools in Brno*. <https://oidp.net/en/practice.php?id=1384>
15. Transparency International Lithuania. (2021). *Participatory budgeting in schools: Lessons and tools*. Vilnius.
16. НИФИ Минфин России. (2021). Школьное инициативное бюджетирование в общеобразовательных организациях Российской Федерации.
17. Participedia. (n.d.). *Phoenix Union High School District Participatory Budgeting*. <https://participedia.net/case/5586>
18. NYC Department of Education. (n.d.). *Participatory budgeting in your school*. <https://infohub.nyced.org/docs/default-source/default-document-library/participatory-budgeting-in-your-school.pdf>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100